

ARAB TILIDA SONNING TUZILISHI VA SANALMISH BILAN  
ALOQASI

Tadqiqotchi: Mirzayeva Mehriniso Abdumuminovna

Yangi Asr Universiteti

Mumtoz sharq filologiyasi" (arab tili) magistranti

E-mail [zinnunzinnura@gmail.com](mailto:zinnunzinnura@gmail.com)

+998937746516

**Annotasiya:** *ushbu ilmiy maqolada son va sanalmish qoidalari haqida ilmiy tahlil olib borilgan.*

**Kalit soʻzlar:** *adad, maʼdud, mufrad, muzakkar, muannas, alfoz al-uqud, tamyiz, zarf.*

Son (العدد): Sanalayotgan narsalarning miqdorini bildiruvchi soʻz boʻlib, bunday sonlarga asl sonlar (العدد الأصلي) deyiladi. Agar son tartibni bildirsa, u holda tartib soni (العدد الترتيبي) deyiladi.

Maʼdud (المعدود): Yoki son aniqlovchisi deb ham ataladi. Bu — son ortidan keladigan noaniq ot boʻlib, u arab tilidagi sonning turiga qarab mansub (نصب) yoki majrur (جر) holatda boʻladi.

Arab tilidagi sonlar toʻrt asosiy guruhga boʻlinadi:

1. Yakka sonlar (الأعداد المفردة)
2. Murakkab sonlar (الأعداد المركبة)
3. Qoʻshma sonlar (الأعداد المعطوفة)
4. Oʻnliklar (ألفاظ العقود)

Har bir son turi grammatik jihatdan oʻziga xos hukmga ega. Quyida tafsilotlari keltiriladi:

Avvalo: Sonning jins (muzakkar yoki muannas) ga koʻra holati.

Koʻpincha arab tilida son va sanalmishdan iborat jummalarni tuzishda xatoliklar kuzatiladi, ayniqsa sonning jinsga koʻra moslashtirilishida. Sonlar, jinsga nisbatan, quyidagi tartibda ishlatiladi:

**1 va 2 sonlari:**

Bu sonlar har doim ma'dud (sanalmish) ga jins jihatidan mos keladi.

M.:

رجلٌ واحدٌ — bitta erkak (muzakkar) حافلةٌ واحدةٌ — bitta avtobus (muannas)

**3 dan 9 gacha bo'lgan sonlar:**

Bu sonlar ma'dud (sanalmish) ga jins jihatidan zid bo'lishi majburiy.

M.: تِسْعُ طَالِيَاتٍ — to'qqiz nafar o'quvchi qiz (ma'dud (sanalmish) muannas, son muzakkar)

تِسْعَةُ طُلَّابٍ — to'qqiz nafar o'quvchi yigit (ma'dud (sanalmish) muzakkar, son muannas)

**10 soni – ikki holatda keladi:**

**Birinchi holat:** Yakkalik shaklida ya'ni bu holda 10 soni hech qanday boshqa son bilan birikmaydi, va uning ortidan boshqa son kelmaydi. Bunday holatda: Son ma'dud (sanalmish) ga jins jihatidan zid bo'lishi majburiy.

M.: عَشْرَةُ أَعْوَامٍ – o'n yil. Bu yerda “عام” so'zi muzakkar, “عَشْرَةُ” muannas.

عَشْرُ سِنِينَ – o'n yil. “سِنَةٌ” so'z muannas, “عَشْرُ” so'zi esa muzakkar.

**Ikkinchi holat:** Murakkab son shaklida

Bu holatda 10 soni boshqa son (1–9) bilan birikadi va bunda son 10 har doim ma'dud bilan jins jihatidan muvofiq bo'lishi kerak.

Misollar: سَبْعَةُ عَشْرَ دَفْتَرًا – o'n yetti daftar (دفتر – muzakkar, 10 soni ham muzakkar)

سَبْعَ عَشْرَةَ طَالِيَةً – o'n yetti o'quvchi qiz (طالبة – muannas, 10 soni ham muannas)

Eslatma: Sonning muannas yoki muzakkar shaklini tanlashda ma'dudning (sanalmishning) yagona (yakkalik) shakli asos qilib olinadi, ko'plik shakli emas.

**Murakkab sonlar (الأعداد المركبة)**

Yuqorida 10 soni haqida so'z yuritildi. Endi 10 bilan birga yonma-yon keladigan murakkab sonlar haqida tushuncha beriladi. Bu sonlar asosan 11 dan 19 gacha bo'lgan sonlardir (ya'ni 1–9 bilan 10 birikmasi).

Bu sonlarning ikki asosiy qoidasi mavjud:

Birinchisi: 11 va 12 sonlari: (أَحَدَ عَشَرَ – اثْنَا عَشَرَ)

Bu sonlar ma'dud (sanalmish) bilan jins jihatidan har doim muvofiq bo'ladi.

M.: اثْنَا عَشَرَ طَالِبَةً – o'n ikki o'quvchi qiz (طالبة – muannas)

Ikkinchisi: 13 dan 19 (ثَلَاثَةَ عَشَرَ – تِسْعَةَ عَشَرَ) gacha bo'lgan sonlar:

Bu sonlar doimo ma'dud bilan jins jihatidan qarama-qarshi bo'ladi.

Murakkab sonning birinchi qismi (ya'ni 3–9) ma'dud (sanalmish) ga zid jinsda, ikkinchi qismi (ya'ni 10) esa ma'dud (sanalmish) bilan jins jihatidan muvofiq bo'ladi.

M.:

سِتَّةَ عَشَرَ لَاعِبًا – o'n olti nafar futbolchi (لاعب – muzakkar, 6 muannas, 10 muzakkar)

سِتُّ عَشْرَةَ حَافِلَةً – o'n olti avtobus (حافلة – muannas, 6 muzakkar, 10 muannas)

**O'nliklar sonlar (ألفاظ العقود):**

Bu guruh quyidagi sonlarni o'z ichiga oladi:

عشرون... ثلاثون، أربعون... ya'ni 20, 30, 40... to 90 gacha bo'lgan sonlar.

Shuningdek, مائة (100), ألف (1000) va مليون (1 000 000) sonlari ham shu toifaga kiradi.

Bu sonlarning o'ziga xos jihati — ularning shakli o'zgarmaydi, ya'ni ma'dud (sanalmish) muzakkar bo'ladimi yoki muannas — farqi yo'q, son bir xil ko'rinishda qoladi.

M.: تِسْعُونَ امْرَأَةً – to'qson ayol      تِسْعُونَ رَجُلًا – to'qson erkak

أَلْفٌ قَبِيلَةً – ming qabila      مِائَةٌ قَلَمٍ – yuzta qalam

**O'nlik sonlarga bog'langan sonlar (الأعداد المعطوفة على ألفاظ العقود):**

Bu — 1 dan 9 gacha bo'lgan yakka sonlar, o'nlik (20, 30... 90) lar bilan “و” harfi yordamida bog'langan holda keladigan sonlardir.

M.: تِسْعَةٌ وَثَلَاثُونَ عَامًا – o'ttiz to'qqiz yil

Bu holatda ikki asosiy qoida mavjud:

Birinchisi: Sonlar 1 va 2 bo'lsa, ular ma'dud (sanalmish) bilan jins jihatidan mos keladi — ya'ni muzakkar yoki muannasga moslashadi.

M.: **وَاجِدٌ وَتِسْعُونَ مُدِيرًا** – to'qson birtta direktor (muzakkar)

**وَإِحْدَى وَثَلَاثُونَ طَالِبَةً** – o'ttiz bir o'quvchi qiz (muannas)

**وَإِحْدَى وَثَلَاثُونَ شَخْصًا** – bir yuz o'ttiz bir kishi (muzakkar)

Ikkinchisi: 3 dan 9 gacha bo'lgan sonlar:

Bu sonlar ma'dud bilan jins jihatidan zid bo'lishi shart. Ya'ni, birinchi qism (3–9) bo'lgan sonlar ma'dud (sanalmish) ga zid jinsda, o'nlik qismi esa – ma'dud (sanalmish) ga mos jinsda bo'ladi.

M.:

**ثَلَاثَةٌ وَثَلَاثُونَ عَالِمًا** – yetmish uch olim **عَالِمٌ** – muzakkar, **ثَلَاثَةٌ** – muannas,

**مِائَةٌ وَخَمْسَةٌ وَثَمَانُونَ بَيْتًا** – bir yuz sakson beshta uy. **بَيْتٌ** – muzakkar, **خَمْسَةٌ** – muannas, o'nlik va ma'dud (sanalmish) bir-biriga mos shaklda keldi.

### **Ikkinchi: Sonning aniqlovchisi – Tamyiz (تمييز العدد) ning hukmi**

Tamyiz (aniqlovchi):

Bu —noaniq (nakira) va mansub (–ni qo'shimchasi bilan ishlatiluvchi) ot bo'lib, o'zidan oldinda kelgan so'zning ma'nosini aniqlab, ochib beradi. Masalan, gapda biror son kelsa, uning nima narsa ekanini aniqlashtirish uchun tamyiz (aniqlovchi) zarur bo'ladi. Sonlar bilan birga kelganda tamyiz — ya'ni ma'dud (sanalmish) — son ortidan keladi va uning ma'nosini ochib beradi.

Masalan, agar “Oltita sotib oldim” (**اشْتَرَيْتُ سِتَّةَ**) deb aytsakda so'ng gapni davom ettirmasdan jim bo'lib qolsak, bu gapda “oltita” nima ekanligi noaniq bo'lib qoladi.

Shuning uchun aniqlovchi ya'ni “tamyiz” ni keltirishimiz shart bo'ladi: Shunda, **اشْتَرَيْتُ سِتَّةَ أَقْلَامٍ** – “Oltita ruchka sotib oldim” deb aytilsa, gapdagi noaniqlik ketadi va tugallanadi.

Tamyiz (ma'dud ya'ni sanalmish) holati son turiga qarab ba'zida majrur (–dan, –ning) qo'shimchasi bilan, ba'zida mansub (–ni) qo'shimchasi kelgan holatda bo'ladi. Qoidalar quyidagicha:

Birinchi: 3 dan 10 gacha bo'lgan sonlar bilan tamyiz har doim ko'plikda va majrur bo'ladi.

M.:

دَخَلَ أَرْبَعَةَ طُلَّابٍ – To‘rt nafar talaba kirdi.

رَأَيْتُ خَمْسَةَ رِجَالٍ – Besh nafar erkakni ko‘rdim.

Ikkinchi: 11 dan 99 gacha bo‘lgan sonlar bilan tamyiz har doim birlik shaklida va mansub holatda bo‘ladi.

M.:

أَنْفَقْتُ وَاحِدًا وَ سَبْعِينَ دِينَارًا - 71 dinor ehson qildim.

اشْتَرَيْتُ ثَلَاثَةَ عَشَرَ رِطْلًا مِنَ الْعَسَلِ – O‘n uch ritl<sup>1</sup> (5.889 km) asal sotib oldim.

Uchinchi: 100 yuz, 1000 ming, 1 000 000 million kabi sonlar bilan tamyiz birlik shaklida va majrur (–ning, –dan) holatda bo‘ladi.

M.:

أَلْفٌ نَاقَةٌ – Ming tuya

مَلْئُونَ نِسْمَةً – Bir million odam

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ne‘matullo Ibrohimov, Muhammad Yusupov, Abdulhakim Oripov. “Arab tili grammatikasi”. (Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik), Toshkent 2024, I-II.

2) Hifniy Nosir, Muhammad Diyab, Mustafu Tamum, Muhammadbek Solik. Ad-Durusun nahviya. Arab va o‘zbek tillarining qiyosiy grammatikasi. Abdulqayum Hikmatov tarjimasini. Toshkent-2023.

(3) أحمد إسكندر. "كيف تتقن النحو" مصر-2023م.

2) [www.educationmag.net](http://www.educationmag.net)

4) [www.researchgate.net](http://www.researchgate.net)

5) [www.17-minute-languages.com](http://www.17-minute-languages.com)

6) [www.aljazeera.net](http://www.aljazeera.net)

<sup>1</sup> 1 ritl 453 gm og‘irlikga teng